

METABOLIK SINDROMNING INGICHKA ICHAK MORFOLOGIYASIGA TA'SIRI

Dustova Gulzoda Komiljonovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti asistenti

Samarqand, O'zbekiston

gulzodadustova19870505@gmail.com.

https://orcid.org/0009-0000-7810-5484

Annotatsiya. Metabolik sindrom (MS) zamonaviy tibbiyotda keng tarqalgan patologik holat bo'lib, uning murakkab patofiziologiyasi turli organ va to'qimalarda morfologik o'zgarishlarga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MS nafaqat ichki organlar faoliyatiga, balki ichak to'qimalarining morfologiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ingichka ichak shilliq qavati va uning osti plastikalari oziq-ovqat moddalari so'rilishi, immun javob va ichak mikroflorasini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Morfometrik o'zgarishlar qon aylanishining buzilishi va adipositlar gipertrofiyasi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari metabolik sindromni oldini olish va davolash bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Metabolik sindrom, ingichka ichak, limfotsitlar, morfologiya

Kirish: Metabolik sindrom (MS) zamonaviy tibbiyotda keng tarqalgan patologik holat bo'lib, uning murakkab patofiziologiyasi turli organ va to'qimalarda morfologik o'zgarishlarga olib keladi[1]. MS ning asosiy komponentlari insulin rezistensiyasi, giperglikemiya, gipertoniya, abdominal semirish va dislipidemiya inson salomatligi uchun katta xavf tug'diradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MS nafaqat ichki organlar faoliyatiga, balki ichak to'qimalarining morfologiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi[2,3]. Ingichka ichak shilliq qavati va uning osti plastikalari oziq-ovqat moddalari so'rilishi, immun javob va ichak mikroflorasini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, metabolik sindrom modeli bo'yicha tajriba hayvonlarining ingichka ichagi morfofunktsional holatiga ta'sirini o'rganish, ushbu patologiyaning ichak to'qimalariga ta'sirini aniqlash va keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratishda katta ahamiyatga ega[4,5].

Tadqiqot materiali va metodlari: Ushbu tadqiqotda metabolik sindromni chaqirish uchun tajriba hayvonlari (kalamushlar) ishlatilgan. Hayvonlarning ingichka ichagi mikropreparatlari mikroskop ostida kuzatilib, epiteliy, kriptalar, muskul qatlamlari va shilliq osti plastikasi tarkibi tahlil qilindi. Nazorat guruhidagi hayvonlar bilan solishtirish orqali morfometrik o'zgarishlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, metabolik sindromni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar insonlarning turmush tarzi, oziqlanishi, ozuqa turi, sifati va miqdori ekanligi

tasdiqlanadi. Xususan, charvi yog'i, shakar, fruktoza va fast-fud mahsulotlarini ko'p iste'mol qilish MS va uning barcha komponentlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa turli nogironlik darajalari va bevaqt o'lim holatlarining ko'payishiga sabab bo'ladi hamda jamiyatga katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Natijalar: Metabolik sindrom modeli chaqirilgan tajriba hayvonlarida limfoid tugunchalar tarkibi va atrof to'qimalarda yallig'lanish belgilari limfositlar va makrofaglar miqdori ortganligi kuzatildi. Mikroskopning bir ko'rish maydonida tajriba hayvonlarida 3–4 ta limfoid tugun kuzatilgan, nazorat hayvonlarida esa 1–2 ta bo'lgan.

Tajriba guruhidagi hayvonlarning ingichka ichagi shilliq qavati o'rtacha $57,7 \pm 2,35$ mkm, nazorat guruhida esa $54,5$ mkm bo'lib, qalinlashish $5,5\%$ ni tashkil qilgan.

Shilliq osti qavati o'rtacha $18,8 \pm 1,85$ mkm bo'lib, bu nazorat guruhidagi hayvonlarga nisbatan $6,8\%$ ga oshgan. Ingichka ichagi devorining umumiy qalinligi tajriba guruhida $129,8 \pm 6,78$ mkm, nazorat guruhida $124,5 \pm 6,56$ mkm bo'lgan, ya'ni $4,2\%$ ga oshgan.

Bu morfologik va morfometrik o'zgarishlar metabolik sindrom modeli chaqirilganda ingichka ichak devorida qon aylanishining buzilishi, shish paydo bo'lishi, limfositlar va makrofaglar migratsiyasi hamda adipositlar gipertrofiyasi hisobiga sodir bo'ladi. Shu bilan birga, shilliq osti qavatida ba'zan nerv chigallari (Meissner plaksalari) ham uchragan.

o'zgarishlarini yanada chuqur tushunishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: Metabolik sindrom tajriba hayvonlarining ingichka ichagi shilliq qavati va shilliq osti qatlamini qalinlashtiradi. Limfositlar va makrofaglar soni ortadi, bu yallig'lanish jarayonlarini ko'rsatadi. Morfometrik o'zgarishlar qon aylanishining buzilishi va adipositlar gipertrofiyasi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari metabolik sindromni oldini olish va davolash bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Foylanilgan adabiyotlar:

1. Fändriks L. Roles of the gut in the metabolic syndrome: an overview //Journal of internal medicine. – 2017. – T. 281. – №. 4. – C. 319-336.
2. Feakins R. M. Obesity and metabolic syndrome: pathological effects on the gastrointestinal tract //Histopathology. – 2016. – T. 68. – №. 5. – C. 630-640.
3. Igorevna P. V. et al. Morphological changes in the liver and intestine in the experimental metabolic syndrome in rats //Медицинский вестник Северного Кавказа. – 2022. – Т. 17. – №. 2. – С. 183-188.
4. Joly F. et al. Morphological adaptation with preserved proliferation/transporter content in the colon of patients with short bowel syndrome //American Journal of Physiology-Gastrointestinal and Liver Physiology. – 2009. – Т. 297. – №. 1. – С. G116-G123.
5. Ramos R. J. et al. Effect of size of intestinal diversions in obese patients with metabolic syndrome submitted to gastric bypass //ABCD. Arquivos Brasileiros de Cirurgia Digestiva (São Paulo). – 2016. – Т. 29. – С. 15-19.